

## UMUMIY O'RTA TA'LIM VA IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDA HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA O'QITISH METODIKASI

**Turayev Jakhongir Anvarovich**

Buxoro davlat universiteti Pedagogika instituti Harbiy ta'lim fakulteti boshlig'ining o'rinbosari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7010769>

*Annotatsiya.* Hozirgi kunda, har bir insonga kerak bo'ladigan va bolishi shart bo'lgan narsa bu vatanparvarlik hissidir. Buni qanday shakllantirish kerak va qachondan boshlash kerak? Bu savollarga ushbu maqolani o'qish mobaynida birin ketin javob topasiz. Ushbu maqola, umumiy o'rta ta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablarda harbiy-vatanparvarlik ruhida o'qitish kerak ekanligini va uning metodikalarini yoritib beradi.

**Kalit so'zlar:** vatanparvarlik ruhi, vatanga sadoqat, vatan himoyachisi, vatanga muhabbat, kreativ tarbiyalovchilar.

## МЕТОДИКА ВОЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКОГО ОБУЧЕНИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ И СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ ШКОЛАХ

*Аннотация.* Сегодня каждому человеку необходимо и должно быть чувство патриотизма. Как его формировать и когда начинать? Ответы на эти вопросы вы найдете, как только прочтаете эту статью. В данной статье освещается необходимость военно-патриотического воспитания в общеобразовательных средних и специализированных школах и его методы.

**Ключевые слова:** дух патриотизма, верность родине, защитник родины, любовь к родине, творческие воспитатели.

## METHODOLOGY OF MILITARY-PATRIOTIC TEACHING IN GENERAL SECONDARY EDUCATION AND SPECIALIZED SCHOOLS

*Abstract.* At the present time, what every person needs and must have is a sense of patriotism. How to shape it and when to start? You will find answers to these questions as soon as you read this article. This article highlights the need for military-patriotic education in general secondary education and specialized schools and its methods.

**Keywords:** spirit of patriotism, loyalty to the motherland, defender of the motherland, love for the motherland, creative educators.

## KIRISH

2019-yil 6-noyabr kuni Maktabgacha ta'lim fakulteti, O'zbekiston Respublikasi Mudofa vazirligi hamda Toshkent shahar Chilonzor tumani MTT boshqarmasi bilan hamkorlikda **"Men ham vatan himoyachisiman"** shiori ostida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari o'rtasida ko'rik-tanlov o'tkazildi.

## TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Ko'rik-tanlovdan ko'zlangan asosiy maqsad - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi PQ-4312-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevraldagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi" da belgilangan vazifalar ijrosidan kelib chiqqan holda, yosh avlodni har tomonlama yetuk, intellektual va ma'naviy salohiyati yuksak, Vatanga sadoqatli insonlar etib tarbiyalashning ahamiyati to'g'risidagi tasavvur va bilimlarini yanada boyitishga yo'naltirildi.

Ko'rik tanlovda Maktabgacha ta'lim fakultetining Musiqa ta'lim yo'nalishi talabalari hamda professor o'qituvchilari ijrosida badiiy chiqishlar namoish etildi. Ko'rik tanlovda 284,350,534,586 MTTdan 530 nafar tarbiyalanuvchilar jalb etildi. Ko'rik tanlov 3 ta shartdan iborat bo'lib, bunda 1-shart harbiy jismoniy chiqish 2- shart ona vatanga muhabbat hamda harbiy vatanparvarlikni madh etgan holda rasm chizish, hamda 3- shart sahna ko'rinishdan iborat bo'ldi. Hamkorlikda tayyorlangan ko'rik tanlov "Maktabgacha ta'lim" fakulteti talabalari uchun ham maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida kreativlikni shakllantirish, tarbiyachilik faoliyatiga innovatsion yondashuvlar borasidagi tasavvurlari va bilimlarini boyitishga xizmat qildi.

**17 aprel kuni "Umumiy o'rta ta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablarda harbiy-vatanparvarlik yo'nalishiga ixtisoslashtirilgan sinflar faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hukumat qarori qabul qilindi.**

Qaror bilan Umumiy o'rta ta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablarning harbiy-vatanparvarlik yo'nalishiga ixtisoslashtirilgan sinflari to'g'risidagi **nizom** tasdiqlandi. Bu haqda Adliya vazirligi ma'lum qildi.

## **TADQIQOT NATIJALARI**

Nizomga muvofiq, **ixtisoslashtirilgan sinflardan maqsad** – umumiy o'rta ta'lim fanlari doirasida harbiy-vatanparvarlik yo'nalishi bo'yicha o'quvchilarning chuqur ta'lim olishini ta'minlashdir.

Bu sinflarga maktablarning **6-sinfni** muvaffaqiyatli yakunlagan, chuqurlashtirilgan fanlardan qobiliyatini ko'rsata olgan o'g'il va qizlar tanlov asosida qabul qilinadi.

- Nomzodlardan tegishli hujjatlar 1-20 iyul kunlari qabul qilinadi.
- Jismoniy tayyorgarlik sinovlari 21 iyul – 5 avgust, tegishli fanlar bo'yicha test sinovlari 15-25 avgust kunlari oraliq'ida o'tkaziladi.
- Jismoniy tayyorgarlik sinovlari yakunlari bo'yicha 100 ballik tizimda 70 va undan yuqori ball to'plagan nomzodlar test sinovlariga qo'yiladi.

Maktablarning ixtisoslashtirilgan sinflarida o'qish muddati 5 yildan (**7-11 sinflar**) iborat bo'ladi.

## **MUHOKAMA**

2020/2021 o'quv yilidan boshlab ixtisoslashtirilgan sinflarga 6-sinfni bitirgan **30 nafar o'quvchi** qabul qilinadi.

Ma'lumot uchun, respublikadagi **56ta maktabda** harbiy-vatanparvarlik yo'nalishiga ixtisoslashtirilgan sinflar faoliyat yuritmoqda. Bu sinflar 2017 yil 17 noyabrda qabul qilingan prezident qaroriga asosan tashkil etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 iyun PQ-4375-son "O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiyasi tarkibida prinsipial yangi "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseylari tashkil etildi.

## **XULOSA**

Yuqorida berilgan ma'lumotlardan xulosa qiladigan bo'lsak, kelajak avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash juda ham muhim ekanligini ko'rishimiz mumkin. Har birimiz, o'z farzandlarimizni kelajakda mard, jasur, vatanga sadoqatli va mehri baland qilishimiz bu

o'zimizni qo'limizda ekan. Demak, bu ishni hozirdan boshlashimiz kerak ya'ni umumta'lim maktablaridan.

## REFERENCES

1. <https://www.milliygvardiya.uz/oz/menu/dlja-postupajuschih-v-shkoly-temurbeka>
2. <https://new.tdpu.uz/page/6903>
3. Botirjon, R. (2022). RESEARCH ON THE DIGITAL ECONOMY IS PROMOTING HIGH-QUALITY GREEN DEVELOPMENT IN EMERGING ECONOMIES. *FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA*, 1(4), 5-10. <https://doi.org/10.1016/B0-08-044854-2/00651-9>
4. Botirjon, R. (2022). THE IMPACT OF A DROP IN THE GLOBAL REAL INTEREST RATE ON A TINY OPEN ECONOMY THAT HAS BEEN STUCK IN A STATE OF STAGNATION FOR A LONG TIME. DEPENDENCE ON RELATIONS BETWEEN STATES. *IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI*, 77-84. [https://beganquotientsome.top/?utm\\_campaign=3R60Iq\\_6TwnSLaZnPTupNSKfvhj857wOWHP26RZmXuwl&t=main9](https://beganquotientsome.top/?utm_campaign=3R60Iq_6TwnSLaZnPTupNSKfvhj857wOWHP26RZmXuwl&t=main9)